

## SO‘ZLASHUV NUTQIDA LAQABLARNING QO‘LLANISHI

**Xusanova Zarifa**

SamDU, Samarqand

### ANNOTATSIYA

Laqablarning qo‘llanishi, avvalo, xalq jonli so‘zlashuv tilida paydo bo‘adi va undan so‘ng ommalashadi, keyin badiiy asar tiliga ko‘chadi. So‘zlashuvda laqablarning paydo bo‘lishi aholining geografik joylashuviga, etnik qatlamiga, kasb-hunariga, fe‘l-atvoriga bog‘liq bo‘libgina qolmay, balki laqab beruvchi subyektning yoshi, mashg‘uloti hamda intellektual salohiyati, shuningdek, ijtimoiy hayot bilan hamnafas yashashiga ham bog‘liq. Laqablar jonli so‘zlashuv tilining ilk elementlaridan biridir. Ushbu kichik tadqiqotda Samarqand aholisi jonli nutqidan olingan laqablar lingvistik tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** so‘zlashuv tili, shevalar, hududiy va etnik qatlam, laqab, ism-sharif, an‘anaviy va zamonaviy laqab, laqablar semantikasi, semantik maydon, ma‘no ottenkasi.

### АННОТАЦИЯ

Употребление прозвищ сначала появляется в разговорном языке народа, затем становится популярным, а затем переходит в язык художественных произведений. Появление прозвища в разговоре зависит не только от географического положения, этнической группы, профессии и характера населения, но и от возраста, деятельности и интеллектуального потенциала, а также от способности дающего прозвище жить с общественной жизнью в одном потоке. Прозвища являются одним из первых элементов разговорной речи. В этом небольшом исследовании лингвистически проанализированы прозвища, взятые из живой речи самаркандцев.

**Ключевые слова:** разговорный язык, диалекты, региональный и этнический слой, прозвище, имя, традиционное и современное прозвище, семантика прозвища, семантическое поле, тонкость значения.

## ABSTRACT

The use of nicknames, initially, appears in the spoken language of people, after that becomes popular, and then moves to the language of artistic works. The appearance of nicknames in communication does not only depend on the geographical location, ethnic layer, profession and craft, character and behavior of the nation, but also on the age, activity and intellectual potential, moreover, the ability of living in one stream with the social life of the subject who gives the nickname. Nicknames are one of the initial elements of spoken language. This small research analyses linguistically the nicknames taken from the spoken language of the population of Samarkand.

**Keywords:** spoken language, dialects, areal and ethnic layer, nickname, name and surname, traditional and modern nickname, semantics of nicknames, semantic field, subtlety of meaning.

Jahon tilshunosligida onomastik birliklarning kommunikatsiya jarayonida eng faol qoʻllanadigan va oʻz sotsiolingvistik xususiyatlariga koʻra muhim ijtimoiy, semantik, estetik va lingvo-stilistik va etnomadaniy maʼlumotlar tashuvchi qismi boʻlmish antroponimlar: ism, familiya, laqab, kunya, unvon, niknomlarni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan oʻrganish muhim ahamiyatga molikligi eʼtirof etilgan. Shu sababli dunyoning koʻplab mamlakatlarida ushbu leksik birliklarning tarixiy hamda zamonaviy koʻp tomlik izohli, qomusiy lugʻatlari yaratilgan, ayniqsa, lisoniy muloqotda faol va keng qoʻllanuvchi laqablarning evolyutsiyasi va zamonaviy holati atroflicha yoritilgan tadqiqotlar yaratilgan. Dunyo ilm-fanida antroponimik birliklarning barcha turlari, jumladan, laqablarni ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-filologik, lingvomadaniy va etnomadaniy aspektlarda tadqiq etish borasida muayyan tajribalar toʻplangan, ilmiy yoʻnalishlar vujudga kelgan. Laqablarning tadqiq etish, ularni tasniflash va antroponimik tizimda tutgan oʻrnini milliy madaniyatning ilmiy va gʻoyaviy-badiiy takomilini, xalqlar va tillar oʻrtasidagi aloqalar va oʻzaro taʼsir, ijtimoiy munosabatlar, lingvomadaniy jarayonlarni baholashda muhim manba ekanligi tasdiqlangan.

Maʼlumki, jonli soʻzlashuv tili umumxalq til koʻrinishlaridan biri boʻlib, bir tomonlama adabiy soʻzlashuv tili, ikkinchi tomonlama esa hududiy shevalar bilan aloqada boʻlgan hamda qorishiq xarakteriga ega boʻlgan til koʻrinishidir. Ogʻzaki soʻzlashuv tilining bunday xarakterli xususiyatlari hamda uning tilshunoslikka doir ilmiy-nazariy adabiyotda turlicha nomlanishi haqida mashhur turkolog-lingvist E.D.Polivanov atroflicha toʻxtalib, quyidagilarni yozgan edi, yaʼni jonli soʻzlashuv tili:

- a) dialekt va shevalar xarakteridagi soʻzlashuv tili;
- b) oddiy soʻzlashuv tili;
- d) adabiy soʻzlashuv tili kabi variantlarga ega.

To'g'ri, bular turli xil ma'nolar ifodalaydi, biroq har bir ifodaning anglatgan ma'nosi bir-biriga yaqin bo'ladi [Polivanov, 1933:17-18]. Jonli xalq tilining bu har uch ko'rinishi tildagi o'zgarishlarni, ayniqsa, til leksik tarkibidagi o'zgarishlarni dastlab o'zida aks ettiradi va ularning bir qismini (ular adabiy normaga aylangach) adabiy tilga transfer qiladi. Bundan tashqari, jonli so'zlashuv umumxalq til ko'rinishlaridan biri bo'lib, u xalq so'zlashuv tili va adabiy til imkoniyatlari asosida shakllanib boradi. Ikkinchidan, jonli so'zlashuv tili imkoniyatlari chegaralangan bo'lib, aksariyat hollarda adabiy til normalariga mos kelmaydi. Ko'rinadiki, jonli so'zlashuv tili adabiy til va uning normalariga mos kelishi yoki mos kelmasligi mumkin. Shunga ko'ra jonli so'zlashuv tili va adabiy til o'rtasidagi leksik va grammatik aloqalar ham doimiy izchildir. Shu bilan birga, jonli so'zlashuv tilining unsurlari ma'lum bir tilda so'zlashuvchi jamoaning hammasi uchun umumiylik va majburiy xarakterga ega emas. Mamlakatimizning turli hududlarida tilimizning uch asosiy lahjasiga xos bo'lgan jonli so'zlashuv tili mavjudligi, bu sheva va jonli xalq tili qorishimi og'zaki-so'zlashuv nutqida har bir lahja va shevaning o'ziga xos jonli so'zlashuv tillari shakllangani va ular kundalik aloqa-aralashuvning adabiy tildan keyingi asosiy va muhim vositasi ekanligi ham ma'lum.

Laqablar jonli so'zlashuv tili mahalliy shevalar bilan chambarchas aloqada rivojlanadi va o'zida o'sha shevaning juda ko'p xususiyatlarini aks ettiradi. Jonli so'zlashuv tilidagi laqablar masalasida ham aynan ana shu holga duch kelamiz.

Bizning kuzatishlarimizga ko'ra, o'zbek tilining Xorazm (o'g'uz) lahjasi, Namangan viloyati Mingbuloq tumani shevalariga tayangan jonli jonli so'zlashuv tilida adabiy tildan farqli laqablar tizimi kuzatiladi va bu shevalardagi laqablar birmuncha o'rganilgan. Boshqa shevalarga asoslangan jonli so'zlashuv tilidagi laqablarni ilmiy o'rganishga hali hanuz kirishilmagan deyish mumkin.

Xorazm shevlaridagi laqablar masalasini maxsus o'rgangan X.M.Qodirova Xorazm shevalarida quyidagi laqablar uchrashini qayd etadi: "kälçik (*kalchik*) – manbada Gurlan, Qo'shko'pir shevalarida "soqov, duduq" odamlarga nisbatan aytilgan. Hozirgi kunda Xorazmning barcha hududlariga tarqalgan bo'lib, duduqlanib, ya'ni qiynalib, tutilib so'zlaydigan kishilarga laqab qilib beriladi: *Ayabek kälçik* (Og'obek kalchik). *Käl* (kal) – sochi yo'q odam. *Öqqi käl* (O'g'iljon kal), bu ayolning sochlari (nima sababdanligini hech kim bilmaydi) o'z-o'zidan bir kun ichida to'kilib qolgan. Shu voqea sabab uni hamma shu laqabi bilan chaqiradi...

*Pashsha* so'zining ma'nosi Xorazm shevalaridagi chivinni ifodalaydi: *Malut ç(i)bin* (*Mavluda chivin*). Odamning jussasi juda kichkina, lekin tirik, chidamli bo'lganligi sababli shu laqab berilgan. *Piyan* (*piyon*) – ichkilikdan kayfi oshgan, mast *Eyam piyan* (Egam piyon), *Aza:m piyan* (Azamat piyon)". Maqolada keltirilishicha,

Xorazm shevalaridagi laqablarning asosiy qismi kishilarning jismoniy fazilat va kamchiliklariga qarab qo'yilgan [*Qodirova, 2020:102*].

Facebook ijtimoiy tarmog'ining "Xorazm va xorazmliklar" ("Хоразм ва хоразмликлар") sahifasida yurtimizning bu mintaqasiga mansub bo'lgan kishilarning o'z shevalaridagi laqablar masalasini alohida muhokama qilganini kuzatish mumkin. 2018-yilning avgust-sentabr oylarida o'tkazilgan bahs va fikr almashuvlarida jami 68 nafar ishtirokchi Xorazm shevalarida, jonli xalq tilida azaldan mavjud bo'lgan va hozirda ham faol qo'llanadigan laqablar xususida qimmatli ma'lumotlar bayon qilingan [*facebook.com, 2022*].

Xorazmda insonlarning ismi bilan qo'shib aytiladigan laqablari sifatida birinchi navbatda kasb-hunar nomi yoki etnik mansubiyat (*qozoq, tojik, chuvash, turkman...*) nomlaridan foydalanish kuzatiladi. Boshqa bir guruhni esa *yonbosh, bodroq, po'rxon, nurat* kabi kelib chiqishi va ma'nosi noma'lum antroponimlar tashkil etadi.

M. Usmonov va Sh. Qosimovning "Shevalarda laqablar etimologiyasi va ularning ishlatilishi (Mingbuloq tumani misolida)" maqolasida esa Namangan qipchoq shevalari misolida jonli xalq tilida laqablarning qo'llanilishi tahlil etilgan [*Usmonova-Qodirova, 2022*]. Ushbu maqolada Namangan viloyati Mingbuloq tumanida yashovchi sheva vakillarining laqablarini o'rganish ko'nikmalari, shuningdek, kelib chiqish sabablari, etimologiyasi, laqablarning ijobiy-salbiy, xususiy-umimiylik jihatlari va laqablarning qo'yilishining o'ziga xos tarixi, laqab qo'yilgan shaxs yoki oilaning etnik, ijtimoiy kelib chiqishi, belgi-xususiyatlari, kasb-kori, urf-odatlar, nuqsonlari yoritib berilgan. Bu kuzatishlarda ham xalq shevalariga asoslangan jonli so'zlashuv nutqida laqablar kishining shaxsiy jismoniy yoki axloqiy-ma'naviy fazilat yoki illatini, kasbini, etnik mansubligini, kasb-ko'rini ko'rsatish uchun xizmat qilishi alohida uqtiriladi. Bevosita hayotning maxsus talablari (xalq orasida ayni ism, familiya, kasb, yosh xususiyatlari)ga ko'ra laqablarning nutqiy muomalada faol qo'llanishi nutqiy-lisoniy norma darajasiga yetgani ko'rsatib beriladi.

Xuddi shunday tadqiqot Samarqand shahar maktab o'quvchilari, oliy o'quv yurti talabalari hamda Samarqand viloyatining turli tumanlarida istiqomat qiluvchi pedagoglar o'rtasida o'tkazilganda, shu narsa kuzatildiki, bu hududda qo'llanuvchi laqablar aholining etnik shakllanishi, ijtimoiy faoliyati, jismoniy va manaviy shakllanishi, shuningdek, texnologik rivojlanish ta'siri ostida paydo bo'lgan va hamon jonli so'zlashuv tilining asosiy elementlaridan biri sifatida saqlanib kelinmoqda. Xususan, Samarqand viloyat Tayloq tumani 16-maktabida o'tkazilgan tadqiqotlardan namuna keltiradigan bo'lsak, "*Tanka xola*" (semizli va doim o'quvchilarni urushganligi uchun), "*Nosqovoq*" (doim burni oqib yurgani uchun), "*Kuydirilgan kalla*" (doim tirjayib turgani uchun), "*Cho'chqaburun*" (burni pachoq bo'lgani uchun), "*Kosa*" (nutqiy xatolik tufayli "*kosinus*"ni kosa deb o'qigani uchun),

“*Roltonbosh*” (sochini “*Rolton*”ga o‘xshatib turmaklagani uchun), “*Pushkin malima*” (elektr toki urushidan keyin sochi Pushkinnikiga o‘xshab qolgani uchun), “*Sherqo‘zi*” (uyida sher, maktabga kelganda qo‘ydek yuvosh bo‘lib yurgani uchun), “*Fashfashak*” (fash-fash qilib nafas olgani uchun), “*Tulpor*” (o‘qituvchining nutqiy odati tufayli, o‘quvchilarga tanbeh berganda doim shu so‘zni ishlatgani uchun), “*Shlakablok*” (semiz to‘rtburchak bo‘lgani uchun), “*Wifi*” (hammaga internet uchun mb tarqatgani uchun), “*Ko‘mir*” (rangi qop-qora bo‘lgani uchun), “*Nimtagi*” (tojikchadan tarjima qilganda “yarimta” degan ma‘noni anglatadi, 11-sinf bo‘lsa-da, juda kichkina bo‘lgani uchun), “*Mikki Mouse*” (qora sharchalardan quloq yasab olgani uchun), “*Lagan*” (yuz shakliga ko‘ra), “*Laganbardor*” (hammaga yon bosib yurgani uchun), “*Qiyshiqdandon*” (tojikchadan tarjima qilganda “qiyshiq tish” manoni anglatadi), “*Babnik*” (o‘g‘il bola bo‘lsa-da, qizlarga yoqish uchun qoshini terib yurgani uchun) va hokazo.

Kuzatuvlar davomida anglashilgan yana bir jihat: laqab paydo bo‘lishida nafaqat laqablanuvchi obyektning imkoniyatlari, balki laqablovchi subyektning dunyoqarash, yoshi hamda intellektual salohiyati ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Jumladan, kishining “semizligi” uning laqabiga asos qilib olinganda, turli hududlarda bunday ma‘no ottenkasini ifodalash uchun turlicha laqablar qo‘yilgan. Masalan, “*Tanka*”, “*Shlakablok*”, “*Buxanka*”, “*Koptok*”, “*Panki*” (shirinlik nomi), “*Tarvuz*”, “*Lo‘ppi*”; rangi “sariq” bo‘lgani uchun “*Sariq*”, “*Sori*”, “*Rus*”, “*Tatar*”, “*Sariq chayon*”, “*Sariqpishak*”, “*Masha*”, “*Mashka*”, “*Sasha*” (ruslarning nomidan); tengdoshlariga nisbatan jussasi “kichkina” bo‘lgan kishilarga nisbatan “*Nimtagi*”, “*Mitticha*”, “*Kichkina*”, “*Pakana*”, “*Jo‘ja*”, “*Zborcha*”, “*Shifucha*” (multifilm qahramoni); xuddi shunday bo‘yi boshqalarga nisbatan uzun bo‘lgan, novcha kishilarga nisbatan esa “*Terak*”, “*Mirzaterak*”, “*Daroz*”, “*Kentavr*”, “*Shlanka*” kabi turlicha ism-laqablar qo‘yiladi. Bu kabi laqablarni subyektning holatidan kelib chiqib, shartli ravishda ikkiga bo‘lish mumkin, ya‘ni an‘anaviy va zamonayiv laqablar sifatida. An‘anaviy laqablar (“*Terak*”, “*Mirzaterak*”, “*Mitticha*”, “*Sariq*”, “*Lo‘ppi*”) tinglovchida juda tez reaksiya beradi, ammo zamonay laqablarda emosional-ekspressiv buyoq yashrin bo‘ladi, odatda, bunday laqablar subyek, obyekt hamda tinglovchining yoshi, mashg‘uloti bir xil, intellektual salohiyati barobar bo‘lgandagina o‘z ta‘sir darajasini ko‘rsatadi. Masalan, talabalarning tengdoshlariga nisbatan “*Shifu*”, “*Shifucha*”, “*Panda*”, “*Kentavr*”, “*Hulya chelik*”, “*doktor Xaus*”, “*Afrosiyob*” (*poyezd*), “*Ronaldo*” “*BBC*”, “*Evrika*” kabi laqablarni qo‘llashi ularning barchasi shu qahramonlar qatnashgan multifilm, filmlarni ko‘rganligi yoki zamon bilan hamnafas yashayotganligi va yangiliklardan muntazam xabardorlini isbotlaydi.

Ayni damda kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, birgina so‘zning o‘zi bir necha kishida laqab sifatida qo‘llansa-da, ammo mohiyat kishilarning turli fazilat va xislatlarini

ochishga xizmat qilishi mumkin ekan. Xususan, “*Shifu*” laqabi shu laqab bilan yuritiluvchi obyektning birida bu laqab uning jussasiga, boshqa kishida chaqqonligiga, yana bir kishida aqlliligiga ishora beruvchi ma’no semalariga egadir. “Ronaldo” laqabini olgan bir yigit unga juda oxshaydi, ikkinchisi juda yaxshi futbol o‘ynab, “Ronaldo”ning fanati bo‘lgani uchun shu laqabni olgan. Yoki “Jo‘ja” laqabining semasida ham ikki xillik kuzatiladi: bir talaba sariqligi uchun deb izohlasa, ikkinchi talaba kichikligi uchun deb izohlagan. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, yuqorida ta’kidlaganimizdek, laqablar aholining etnik shakllanishi, ijtimoiy faoliyati, jismoniy va manaviy shakllanishi, shuningdek, texnologik rivojlanish ta’siri ostida paydo bo‘ladi va zamon talabiga ko‘ra yangicha nom olaveradi, bunda aksariyat hollarda mohiyat o‘zgaradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jonli so‘zlashuv va shevalarda laqablarning nutqiy qo‘llanishi uchun real ehtiyoj mavjud va shu sababli uning nutqiy ko‘lami bu kommunikativ muhitda adabiy tildagidan ancha keng.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык (К современной стадии узбекского языкового строительства). –Ташкент: Узгосиздат, 1933. с.17-18.
2. Qodirova X. M. Xorazm shevalaridagi laqablar va ularni tadqiq qilishning nazariy va amaliy ahamiyati / Nicknames in Khorezm dialects and the theoretical and practical significance of their study //«O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilsih bo‘yicha hamkorlik istiqbollari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2020-yil, 19-20-oktabr. Toshkent – 2020. –B.100-104.
3. [https://www.facebook.com/groups/khorezmian/permalink/1874557629288807/?comment\\_id=1875280815883155](https://www.facebook.com/groups/khorezmian/permalink/1874557629288807/?comment_id=1875280815883155) (Aprel, 2022)
4. Usmonov M. M., Qosimova Sh. U. Shevalarda laqablar etimologiyasi va ularning ishlatilishi (Mingbuloq tumani misolida) <https://hozir.org/shevalarda-laqablar-etimologiyasi-va-ularning-ishlatilishi.html> (aprel, 2022)